

BUXORO SHASHMAQOMI YARATILISH TARIXI

Samiyeva Mehriniso Azimovna

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası o'qituvchisi

Kamolov Diyorjon Sheraliyevich

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti talabasi

Maqomlar tarixini o'zaro farqli ikki yirik davrga ajratish mumkin. Birinchi davrni maqomlarning qadimiy kelib chiqish ildizlari, dastlabki kuy-ohang qatlamlari tashkil etadi. Tabiiyki, bu davrda tom ma'nodagi maqomlar bo'lmagan. Zotan, bizgacha yetib kelgan maqomot tizimlarining shakllanish jarayonlari ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning ma'lum bosqichiga dahldor bo'lib, bu ikkinchi davrni tashkil etadi.

Maqom kuy-ohanglarining qadimiy qatlamlarini o'rganishga ko'mak bo'luvchi maxsus musiqiy risolalar yo'q. Ammo "Shashmaqom", "Xorazm maqomlari" va "Farg'ona - Toshkent maqom yo'llari" – bu borada tasavvur beradigan muhim manbalar sanaladi. Zero, maqom kuylarining xususiy "tip" tuzilishi ular tarkibida uyg'unlashgan turli davr musiqiy qatlamlarini aniqlab olishga imkon beradi.

Olimlar orasida mavjud qarashlarga ko'ra, maqomlarning eng qadimiy namunalari payg'ambarlardan meros qolgan. Bu haqda XVI asr ikkinchi yarmi XVII asr birinchi choragida yashab ijod etgan vatandoshimiz, mashhur musiqachi va olim Darvish Ali Changiyning "Tuhfat us-surur" nomli risolasida ma'lumotlar bor.

Maqomlarda mavjud muhim musiqiy qatlamni xalq og'zaki musiqi ijodiyotining ko'hna namunalari tashkil etadi. Hayratlanarli tomoni shundaki, maqomlarda xalq musiqasining hatto eng qadimiy namunalariga oid "izlari" ham saqlangan. Xususan, bu izlarni bizgacha yetib kelgan Navro'zi ajam, Navro'zi xoro, Navro'zi sabo nomli maqom asarlarida ko'ramiz. Bu asarlarning kuy negizlarida mutaxassis olimlar tomonidan "xalq kuyining eng qadimiy namunasi" ("birlamchi chiziq" – G.Shenker) tarzida tasnif etilishicha oqim kuy-ohanglari yaqqol namoyon bo'ladi. Bu hol bejiz emas, albatta. Ko'pgina Sharq xalqlari uzoq o'tmishdan buyon Navro'z bayramini nishonlash munosabati bilan ma'lum kuy va ashulalarni ijro etganlar. O'ziga xos mavsumiy marosim musiqasi sifatida xalq an'anaviy hayotidan o'rin olgan bu toifa kuylar keyinchalik maqom tizimlariga kiritilib, o'zining yuksakrivojlangan ko'rinishlariga ega bo'lganligi aniq.

Maqom manbalari qatorida "goh" (ya'ni Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh shaklidagi) kuy tuzilmalari ham e'tiborga molik. Aksariyat olimlar bu kuylarni qadimiy kitoblarni ma'lum ohanglarda o'qish an'anasiga dahldorligini, shu jumladan, "Avesto"dagi "got" madhiyalariga borib taqalishini faraz qiladilar. Bu o'rinda Avestodagi "Catheha" so'zi keyinchalik dariy (forsiy) tiliga "Gah" shaklida o'tganligi va yana qator holatlar inobatga olinadi. Ammo etnomusiqashunoslik sohasidagi so'nggi natijalar "goh" kuylarining ildizlari faraz etilayotgan davrlardan ham qadimiyroq ekanligini ko'rsatmoqda. ususan, Farg'ona-Toshkent maqomlaridan Dugoh Husayniy I kuyi negizida ikki tayanch pardali ohang tuzilmasi, Segoh cholg'u kuyida, shuningdek, Shashmaqomning Tasnifi Segoh, Xorazm Segoh maqomining Tani Maqom qismlarida uch tayanch pardali ohang tuzilmalari bor. Bunday tayanch tovushli kuy namunalari xalq musiqiy tafakkurining dastlabki kurtaklari hisoblanadi.

Garchand, maqomlarda qadimiylikka oid ko'plab musiqiy yodgorliklarning unsurlari topilsa ham, ular asl holida qayta jonlanishiga kafolat yo'q.

Demak, maqomlarning eng qadimiy tarixi aslida tom ma'nodagi maqomlar tarixi bo'lmay, balki ko'proq ularning kelib chiqish manbalari bo'lgan ko'hna davr kuy qatlamlariga dahldordir. Xuddi ana shu turli qatlam musiqa namunalari asosida usluban badiiy yaxlit maqom tizimlarining shakllanish davrlarida bevosita mumtoz maqomlar tarixi ham boshlanadi.

Dastlabki maqom tizimlari qachon va qanday shaklda bo'lganligi xususida aniq ma'lumotlarga ega emasmiz. Bu borada sasoniyalar saroyida (shoh Xusrav Parviz davrida – 590-628) xizmat qilgan mashhur musiqachi Borbad (vaf. 627) ijodiy merosi, xususan, unga nisbat beriladigan “7 Xusravoniy” tizimi diqqatni o'ziga jalb etadi. Musiqashunos olimlar “Xusravoniy” tizimi keyinchalik maqomot tizimlari yuzaga kelishida asos bo'lganligi, uning maqomlar shakllanishiga ta'sir etganligini taxmin qiladilar. Zotan, salobatli maqom tizimlarining yuzaga kelishi kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum bosqichi bilan shartlangan. Xususan, atoqli maqomshunos olim, san'atshunoslik fanlari doktori Ishoq Rajabov bu borada shunday yozadi: “Maqomlar insonning musiqa xaqidagi tushunchalari, musiqiy-estetik qarashlari barkamol bo'lgan kishilarning ongi va saviyasi yuksalgan bir davrda yuzaga kelgan...”

Maqomlar tizimining shakllanishi jahon ilmu fanining rivojlanishi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Sharq musiqa olimlari musiqani tibbiyot, falsafa va matematika fanlari bilan bog'liq ekanligini uqtirib o'tganlar”.

Shuni aytish kerakki, Sharq musulmon olamida maqom tizimlarining paydo bo'lishi uchun zarur omillar IX-X asrlarda yuzaga kelgan edi. Zero, aynan shu davrlarda aniq fanlar rivojlandi, vatandoshimiz Abu Nasr Forobiyning (871-950) musiqashunoslikdagi buyuk xizmatlari o'laroq, Sharq musiqa ilmiga asos solindi, kasbiy musiqa amaliyoti yangi bosqichga ko'tarildi. Ana shu omillar ta'sirida o'rta asr Sharqining yirik (makaziy) shaharlarida O'n ikki maqom tizimi yuzaga kelgan edi. Mazkur tizim tasnifoti dastlab Safiuddin Urmaviy (tax.1230-1294) va Qutbiddin Sheroziylarning (1236/37-1310) musiqa ilmiga doir asarlarida ishlab chiqilgan bo'lib, keyingi asrlarda Abulqodir Marog'iy (1353-1437), Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin Husayniy (XV), Najmiddin Kavkabiyy (XVI), Darvishali Changiy (XVI-XVII) kabi amaliyotchi va nazariyotchi olimlar tomonidan ijodiy davom ettirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Samieva M. BUKHARA PERFORMANCE METHOD A FACTOR FOR DEVELOPING THE MORAL QUALITIES OF ADOLESCENT STUDENTS // " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – C. 191-194.
2. Samiyeva M. A., Ramazonov A. V. O 'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI-O'QUVCHILAR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH OMILI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 12. – C. 31-36.
3. Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Zeta Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – C. 1067-1071.
4. Мустафоев Б. И., Самиева М. А. БУХАРСКИЕ ДРЕВНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ГРУППЫ-СРЕДСТВО ОБРАЗОВАНИЯ //European Science. – 2021. – №. 2. – C. 26-28.
5. Ortiqov, E. . (2023). Musiqa Madaniyati Ta'limida Musiqiy Savodxonlik Faoliyatini Tutgan O'Rni. *International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses*, 106–112. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/ICMRITA/article/view/835>
6. Артыкова, Э. ., & Рузиева, З. (2022). ВЕЛИКОЕ БЛАГОСЛОВЕНИЕ – ПЕСНЯ ШАШМАКОМ. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 1(2), 22–24. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/6459>

7. E Ortikov. Historical Analysis of National Musical Heritage and Moral-Aesthetic Education in Music and Art Schools of Uzbekistan . 2023/8/20 Academic Journal Publisher <http://dspace.umsida.ac.id/handle/123456789/5948>
8. Mustafoyev B. TA'LIM ISLOHOTLARI MAZMUNIDA YOSH AVLOD MUSIQA MADANIYATI TARBIYASI //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 60-66.
9. Mustafayev B. FROM THE HISTORY OF MUSIC EDUCATION AND PEDAGOGICAL SYSTEM ACTIVITY IN UZBEKISTAN IN THE 1950s-1970s //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1007-1012
10. Мустафаев Б. “БУХОРЧА” ВА “МАВРИГИ” МУСИҚИЙ ТУРКУМЛАРИ ТАДҚИҚОТЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ, МАЪНАВИЙ–МАЪРИФИЙ АҲАМИЯТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.
11. Мустафаев Б. БАРКАМОЛ АВЛОД МУСИКА МАДАНИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШДА ИСЛОҲОТЛАРНИН АҲАМИЯТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23..
12. Мустафаев Б. БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА МУСИҚИЙ САВОДХОНЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИДА МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШ ВА БАҲОЛАШГА ЎРГАТИШ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23..
13. Мустафаев Б. УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА МУСИҚИЙ ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.
14. Kholmuradovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.
15. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.
16. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501.